

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (5-jild)
2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 3 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Mansurov Ulug'bek Umarovich</i> FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA TIBBIYOT TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (1917-1990-YILLAR)	12-20
<i>Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich</i> O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM BOSQICHIDA DUAL TA'LIM SHAKLINING JORIY QILINISHI TARIXI	21-27
<i>Bobobekova Nargiza Ismatullayeva</i> JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI FAOLIYATI TARIXI (XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARI)	28-33
<i>Esanova Nilufar</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING YENGIL SANOAT SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIGI	34-37
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> QO'QON XONLIGI QO'SHININING QUROL-ASLAHALARIGA OID	38-45
<i>Давлетмуратов Куралбай Хожамуратович</i> АНТИЧНЫЕ И СРЕДНЕВЕКОВЫЕ ЗООМОРФНЫЕ МЕТАЛЛИЧЕСКИЕ ИЗДЕЛИЯ ХОРЕЗМА	46-52
<i>Raximov Bektosh, Tashmuradov Umidbek</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARNING DAVLAT SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI	53-57
<i>Otaxanov Alisher Mamadaliyevich</i> TEMURIY MALIKALARNING ILM-FAN VA IJTIMOIIY TARAQQIYOTGA QO'SHGAN HISSALAR	58-64
<i>Xakimov Ravshan Raimovich</i> MIRZACHO'LNING ETNOEKOLOGIK MUAMMOLARI	65-74
<i>Ergashev Jahongir Yunus o'g'li</i> TURK XOQONLIGINING BOSHQARUVIDA IMPERIYACHILIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	75-82

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> ЦИФРОВОЙ ДИВИДЕНД: ИЗУЧЕНИЕ ПОТЕНЦИАЛА ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	83-96
<i>Abdullayev Altinbek Yangibayevich</i> KORXONANING KOMPLEKS ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI VA QO'SHIMCHA MAHSULOT ISHLAB CHIQUARISH HISOBINI YURITISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	97-113
<i>Komolov Odiljon Sayfidinovich</i> KREDIT TASHKILOTLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI	114-123

<i>Shaislamova Nargiza Kabilovna</i> MAMLUKAT IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING ROLI	124-134
<i>Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING AYLANMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI	135-147
<i>Abdimurodov Baxrom, Abdimurodov Bahodir</i> AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XODIMLARGA HAQ TO'LANADIGAN HAR YILGI MEHNAT TA'TILINI RASMIYLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	148-152
<i>Matkarimov Inomjon, Yuldashbayev Azizullo</i> BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH	153-158
<i>Исламтудинова Дина Файзрахмановна</i> ТРАНСФОРМАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОНЕВОДСТВА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНИ	159-166
<i>Ravshanov Zaxiriddin Ibragimovich</i> OVQATLANISH XIZMATLARI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	167-176
<i>Джуманиязов Уббинияз Исмайл улы</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КИТАЯ	177-183
<i>To'lov Ulu'bek Toshmamatovich</i> YERLARNI BAHOLASH VA SOLIQQA TORTISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	184-193
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich,</i> IJTIMOIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING INSON SALOHİYATIGA TA'SIRI	194-200
<i>Tashanov Abduxoliq</i> QADIMGI SHARQ MANBALARIDA INSON BUZG'UNCHILIGI HAQIDAGI QARASHLAR ...	201-206
<i>Muhamedov Asror Asadovich</i> UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSIDAN FOYDALANISH	207-213
<i>Жумаева Шахло Суюновна</i> ВОПРОС НРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВА В УЧЕНИИ АХМАДА ЯССАВИ	214-219
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> HAJVIYLIKNING PSIXOLOGIK IJTIMOIY-MADANIY VA ESTETIK XUSUSIYATI	220-224
<i>G'ulomov Zuxriddin Baxromjon o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOLG'ON AXABOROTLARNING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI	225-231
<i>Xaitov Lazizbek Azamatovich</i> HAKIM TERMIZIYNING FALSAFIY TA'LIMOTI	232-236

<i>Ortiqov Shahriddin</i> SHAXS ESTETIK ONGI VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TEATR SAN'ATINING O'RNI	237-241
<i>Toshboboeva Munavar</i> IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI	242-248
<i>Murotov Elyor Narzillo o'g'li</i> YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYALARINING UZVIYLIGI VA FALSAFIY TAHLILI	249-255
<i>Soipova Mavjuda Karimjanovna</i> FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA NUR VA HARAKAT MASALASI	256-260
<i>Ashurova Xurshida Sag'dullaevna</i> HOJI MUIN ZAMONDOSHI SHOKIR MUXTORINING HAYOTI VA FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI	261-264
<i>Karimov Anvarjon Lutfilloyevich</i> IBN SINO FALSAFIY MEROSIDA AXLOQI MASALASI	265-269
<i>Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich</i> MA'NAVIY MARGINALLASHUV DAN HIMOYALANISHDA XORIY TAJRIBASI	270-275
<i>Samadov Jonmurod</i> JALOLIDDIN RUMIY GNOSEOLOGIASINING ZAMONAVIY TAHLILI	276-280
<i>Barnoev Sanjar Qurbonovich</i> YUSUF HAMADONIYNING INSON VA KOINOT UYG'UNLIGIGA OID TA'LIMOTIDA ME'YOR MASALALARI	281-286
<i>Ярлакабов Джамшид Мамасултонович</i> СВОБОДА И НЕОБХОДИМОСТЬ КАК ВЕКТОРЫ РАЗВИТИЯ ГЛОБАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА: РЕАЛИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ	287-291
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING SINXRON TAHLILI	292-297
<i>Xayrullayeva Shahzoda Farhod qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SALBIY VA IJOBIY HIS TUYG'ULARNI LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI	298-303
<i>Tadjiyeva Mastura, Umarxonova Dilafruz</i> INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA "BOYLIK" VA "FAQIRLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI	304-308
<i>Sharipova Nilufar Shaxrillo qizi</i> ZAMONAVIY DUNYO ADABIYOTIDA XALQ KULGISI ASOSIDA KELIB CHIQQAN YANGI BADIY SHAKLLAR	309-312
<i>Ochilova Gulnoza Farxod qizi</i> NUTQ BIRLIKLARI MASALASINING UMUMIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI	313-316
<i>Alqarov Nazarbek Alisher o'g'li</i> IT MOTIVINING DUNYO VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI	317-322

<i>Abdusalomov Firuz Abduxoliqovich</i> HARBIY DISKURSDA BUYRUQNING VOQELANISHI	323-329
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i> STYLISTIC AND LINGUACULTUROLOGICAL FEATURES OF IMPLICATURES IN ENGLISH AND UZBEK ANECDOTES	330-333
<i>Safarova Farida, Toshkulova Madinabonu</i> THE STUDY OF TEXT LINGUISTIC	334-337
<i>Amonova Dilshoda Azamat qizi</i> ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI (DEN BRAUNNING "DA VINCHI SIRI" ROMANI MISOLIDA)	338-343
<i>Sultonova Gulchehra Xusanovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILI NAMUNASI SIFATIDA AFORIZMLARNING MADANIY VA FALSAFIY JIHATLARI	344-348
<i>Makhmudova Mutabar Dustmukhammad kizi,</i> CAUSES OF STEREOTYPE OCCURRENCE	349-353
<i>Sadullaeva Matlyuba Akhrorovna,</i> NUMERIC MYSTERIES: THE ROLE OF NUMBERS AND SYMBOLISM IN "THE DA VINCI CODE"	354-359
<i>Khusenova Shosura Toshtemirovna,</i> DOCTORS' ATTITUDES TOWARD LEARNING ENGLISH: A NEEDS ANALYSIS REPORT	360-363
<i>Mamajanova G'uncha, Shakirova Saida</i> EKVIVALENTLIK VA TAFOVUT MEZONLARI ASOSIDA O'ZBEK VA INGLIZ METAFORALARINING QIYOSIY TAHLILI	364-368
<i>Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi</i> SODIQIY AFSHORNING "MAJMA UL-HAVAS" TAZKIRASI VA UNING O'ZBEK TAZKIRASHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI	369-372

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Нурпеисов Еркеш, Ибраева Алуа, Сманова Акмарал</i> КОНСТИТУЦИОННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРИАДЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ ВЫБОРЕ КАЗАХСТАНА	373-379
<i>Камалов Мансурхон Мухтарович</i> К ВОПРОСУ О КОНФЛИКТЕ ИНТЕРЕСОВ В КОРПОРАТИВНЫХ ОТНОШЕНИЯХ	380-385
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> QONUN BUZILISHI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BUNGA IMKONIYAT YARATIB BERAYOTGAN SHART-SHAROITLARNI BARTARAF ETISH TO'G'RISIDAGI PROKUROR TAQDIMNOMASINING MAZMUNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR	386-394
<i>Xolov Utkir Shomurodovich,</i> QONUNYIY KUCHGA KIRGAN SUD Hujjatlari Yangi Ochilgan Holatlar bo'yicha qayta ko'rishning ayrim masalalari	395-399
<i>Kuldoshev Ulug'bek Otabek o'g'li</i> KASB YUZASIDAN O'Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK VA XAVF OSTIDA QOLDIRISH JINOYATLARINING SUBYEKTI VA ULARNING FARQLI JIHATLARI	400-407

<i>Ибрагимова Сабина Эркиновна</i> К ВОПРОСУ О ДАЛЬНЕЙШЕЙ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ПРАВОСУДИЯ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ, В УГОЛОВНО- ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	408-413
<i>Avezov Dilshod Sadulayevich</i> MAHALLIY KENGASH DEPUTATINI CHAQIRIB OLISH MASALALARI VA UNING XUSUSIYATLARI	414-418
<i>Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH YOKI O'TKAZISH JINOYATINING PREDMETI TAHLILI	419-423
<i>Zairov Asadbek Sayfullo o'g'li</i> INKLYUZIV TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA QONUNCHILIK BAZASINING ROLI	424-432
<i>Karimov Bekmurodjon Anvarjonovich</i> BMT INSON HUQUQLARI BO'YICHA SHARTNOMAVIY ORGANLARI TIZIMINI KUCHAYTIRISH	433-442
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA KREATIVLIKNI TASHXISLASH METODIKALARINI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	443-449
<i>Raxmatov Otabek Urinbosarovich</i> "JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI" FANINING BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI	450-455
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO'GARAGI MAHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI	456-461
<i>Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna</i> TALABALARDA INSHONING MAZMUNII- MANTIQUIY BAYON QILINISHIGA DOIR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH	462-467
<i>Ortiqov Bekruh Baxodir o'g'li</i> ZAMONAVIY VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA BIOMEXANIK XUSUSIYATLARI HAMDA SAMARADORLIKKA TA'SIRI	468-472
<i>Jumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna</i> TALABALARNI INVARIANTIV VA VARIATIV TAHDIDLARDAN HIMOYALASHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI	473-480
<i>Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich,</i> TALABALAR KASBIY-AXLOQIY TAYYORGARLIGIGA QADRIYATLARGA ASOSLANGAN YONDASHUV	481-486
<i>O'tashev Xasan Nematullayevich</i> OLIIY TA'LIM MUASSASASIDA SPORT ISHLARINING USTUVOR VAZIFASI SIFATIDA SPORT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHALTLARI	487-492
<i>Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li</i> BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHISINING AXLOQIY YETAKCHILIGI VA KASBIY FAZILATLARI	493-500

<i>Mengliyev Bobur Normamatovich</i> O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI TAHLIL QILISH USULLARI	501-507
<i>Gafforov Alisher Xolmurodovich</i> PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAQAMLI TA'LIM RESURLARINI LOYIHALASH, TIZIMLASHTIRISH VA UNING MAZMUNI	508-518
<i>Qurbonova Bonu Quvondiq qizi</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KITOBGA QIZIQTIRISH: SAMARALI USULLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	519-524
<i>Zubaydullayev O'ktam Raim o'g'li</i> O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA SAN'ATNING O'RNI	525-529
<i>Raximov Nurillo Narzullaevish</i> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR	530-538
<i>Ergashova Munisa Hoshim qizi</i> MUSTAQIL TA'LIMNI O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH	539-543
<i>Nuriddinova Madina, Nuriddinov Muhriddin</i> USING WIKI-TECHNOLOGY TO IMPROVE STUDENTS' WRITING COMPETENCE	544-552
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,</i> O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	553-560
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna,</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI IMKONIYATLARI	561-565
<i>Evatov Saminjon Sobirovich</i> JAMOAVIY FAOLIYATNI TASHKEL ETISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH	566-572
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TIZIMLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TAMOIYILLARI	573-577
<i>Idrisov Mironshoh Ilyos o'g'li</i> TALABALARNI JISMONIY TARBIYA, SPORT VA TURIZM VOSITALARI BILAN SOG'LOMLASHTIRISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	578-582
<i>Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi</i> 1-SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING INTENSIVLIGINI TA'MINLASH METODIKASI	583-587
<i>Yavkochdiyeva Dilafruz</i> TALABALARNI PEDAGOGIK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA "STAATE" INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	588-593

Received: 16 February 2025

Accepted: 5 March 2025

Published: 20 March 2025

Article / Original Paper

THE EXPRESSION OF COMMAND IN MILITARY DISCOURSE

Abdusalomov Firuz Abdukholikovich,

Senior lecturer of the Center for foreign languages, associate professor,
Academy of the MIA of the Republic of Uzbekistan.

Tashkent, Uzbekistan.

E-mail: desperion90@gmail.com

Abstract. This article is devoted to the expression of the imperative mood in military discourse, the analysis of the structure, types, and characteristics of imperative sentences, and the study of the role of military discourse as institutional discourse.

Keywords: order, military discourse, military slang, semantic meaning, command, request, warning, advice.

HARBIY DISKURSDA BUYRUQNING VOQELANISHI

Abdusalomov Firuz Abduxoliqovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Xorijiy tillar markazi katta o'qituvchisi, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqola harbiy diskursda buyruq maylining ifodalanishi, buyruq gaplarning tuzilishi, turlari va xususiyatlarini tahlil qilish hamda harbiylar diskursining institutsional nutq sifatidagi rolini tadqiq qilishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: buyruq, harbiy diskurs, harbiy sleng, semantik ma'no, farmoyish, iltimos, ogohlantirish, maslahat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N45>

Ma'lumki, armiya insoniyat tarixi davomida aksariyat davlatlar uchun asosiy ijtimoiy institutlardan biri bo'lib kelgan. Qurolli to'qnashuvlar, hududlarni egallab olish, imtiyozlar va sulhlar va boshqa harbiy harakatlar doirasida sodir bo'layotgan barcha voqealar, til doirasida muayyan kommunikativ strategiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi, ularning o'ziga xos xususiyatlari armiya ijtimoiy guruhining xususiyatlari bilan belgilanadi.

Doimiy ravishda o'zgaruvchan harbiy to'qnashuvlar bilan tavsiflangan hozirgi geosiyosiy vaziyat jamiyatning doimiy kurashda ekanligini ifodalash bilan birga, harbiy harakatlarning zamonaviy voqeliklarga mos modelini kuchaytirishga xizmat qiladi. Binobarin, kundalik hayotda harbiy realiyalarning mavjudligi "harbiy nutq" tushunchasini o'rganish va uning o'ziga xos tarkibiy xususiyatlarini aniqlashning dolzarbligini belgilaydi.

Harbiy nutq — bu *"harbiy xizmatchilar faoliyatini tashkil etishning alohida nutq turi bo'lib, u nutqning harbiy vaziyat, harbiy soha doirasida atrofdagi vaziyat bilan bog'liqligi kabi xususiyatlarga ega; maxsus harbiy xronotopliligi; maqsadlilik; ishlatiladigan nutq elementlarining yaxlitligi; izchillik; harbiy-faktik axborot mazmundorligi; protsessuallik; intertekstuallik; harbiy nazariy va harbiy tarixiy manbalarning nufuzlilik; dunyoning*

antroposentrik harbiy surati; boshqa institutsional turdagi nutqlar bilan o'zaro aloqa qilish qobiliyati"ning mavjudligi bilan boshqa nutq turlaridan tubdan farq qiladi [11, 494-b].

Harbiy nutqning o'ziga xosligi uning subyektlarining alohida ijtimoiy institutga mansubligi bilan izohlanadi. Shu o'rinda V.I.Karasik "muloqot ishtirokchilarining maqomi va rol xususiyatlariga qarab harbiy nutqni shaxsiy va institutsional turlarga ajratishni taklif qiladi [6, 216-217-b]. Nutqning institutsional turi *siyosiy, harbiy, diplomatik, huquqiy, ma'muriy, diniy va boshqalarni* o'z ichiga oladi. Uning fikricha, institutsional nutq turlarini shakllantirish mezonlarining xususiyatlariga **ishtirokchilar** (harbiy va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning barcha lavozim va darajalardagi xodimlari); **maqsadlar** (belgilangan vazifalarni bajarish, shu jumladan harbiy operatsiyalarni o'tkazish va dushman ustidan g'alaba qozonish); **xronotop** (harbiy tuzilmalarning ochiq va yopiq majlislari; harbiy qismlar; harbiy bazalar; armiya guruhlar); **qadriyatlar** (urush uchun zaruriy fazilatlar, jumladan harbiy intizom, uzoqni ko'ra bilish, boshliqlarga hurmat (bo'ysunish), harbiy an'analarga rioya qilish, sharaf, mardlik, jasorat); **strategiyalar** (taqdimot strategiyasi); **materiallar** (harbiy mojarolar, urush tamoyillari, taktikasi, bo'ysunish ("boshliq" - "bo'ysunuvchi"ning o'zaro munosabatlari); **xilma-xillik va janrlar** (buyruqlar, ko'rsatmalar, qarorlar, farmoyishlar, yo'riqnomalar, tavsiyalar, talablar); **pretsedent (o'xshash) matnlar** (ustav hujjatlari, shuningdek harbiy xizmatni tartibga soluvchi hujjatlar); **diskursiv formulalar (munozara shakllari)** — "quruq" til, unda shablonlar va qonuniy formulalar, umumiy qabul qilingan buyruqlar va boshqalar ustunlik qiladi) kabi komponentlar kiradi.

Harbiy diskurs nutqning institutsional turi, rasmiy va norasmiy qismlardan iborat bo'lib, ular o'z navbatida matn va kontekstni o'z ichiga oladi. Harbiy diskurs va institutsional nutqlarning boshqa turlari o'rtasidagi farqlar kommunikativ vaziyatning ekstralingvistik xususiyatlari bilan belgilanadi. V.I.Karasik 8 ta institutsional nutq xususiyatlarini ko'rsatgan bo'lsa, boshqa tadqiqotchilar ularni asosiy 4 ta ekstralingvistik xususiyatlarini tan oladilar [4, 165-168-b]. Bu xususiyatlarga **tipik ishtirokchilar** (odatda "ofitser yoki askar" va "boshliq (komandir) yoki bo'ysunuvchi" juftlikdir, ya'ni ushbu turdagi nutq doirasida iyerarxik munosabatlar amalga oshiriladi); **maqsad** (davlat xavfsizligini ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish); **qadriyatlar** (qasamyod va harbiy burchga sodiqlik, yuqori tayyorgarlik, jangovar mahorat va boshqalar); **xronotop** (davlat va uning manfaatlarini himoya qilish uchun o'quv yoki haqiqiy jangovar harakatlar olib boriladigan har qanday vaqt va joy)ni kiritishni maqsadga muvofiq, deb hisoblash mumkin.

Qurolli kuchlar tuzilmalari alohida ijtimoiy institut sifatida o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi va bu xususiyatlar aniq vertikal yo'naltirilgan bo'ysunuv tizimiga ega, ya'ni harbiy idoralar va shaxsiy tarkibning qat'iy qoidalar doirasidagi xatti-harakati, markazlashtirilgan rahbarlik va mansabdor shaxslarning javobgarligi kabilar shular jumlasidandir.

Bundan kelib chiqadiki, harbiy nutq katta hajmdagi ma'lumotlarni yetkazish, shuningdek, muhitning doimiy o'zgaruvchanligi aniq maqsad va vazifalarni belgilash vositasi sifatida ifodalangan fikrlarning qat'iyligi, aniqligi va mantiqiyliigi, matnning standartlashtirilgan prototip modellari kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Harbiy nutq janrlarini hisobga olgan holda, tilshunos olimlar turli tasniflarni taklif qilganlar. G.M.Strelkovskiy harbiy sohadagi matnlarning funksional maqsadini tahlil qilib, ikkita asosiy turini aniqlaydi: 1) qurolli kuchlar faoliyatini tartibga soluvchi matnlar (*nizomlar*,

buyruqlar, ko'rsatmalar, hisobotlar, ma'lumotlar va boshqalar); 2) axborot mazmunidagi matnlar (*harbiy-ilmiy, harbiy-texnik, harbiy axborot va harbiy jurnalistik*) [10, 272-b].

Harbiy matnlarning birinchi guruhi rasmiy-idoraviy uslubga xos bo'lib, u taksonomiyaga ko'ra matnning tartibli tuzilishini, atamalarning faol qo'llanilishini, tayyor matn (shablon)lardan foydalanishni, nisbatan quyi kontekstlilikni, hissiyot va baholashning qo'llanilmasligini nazarda tutadi. Rasmiy harbiy nutqqa xos bo'lgan bu xususiyatlar uning institutsional xususiyatini yana bir bor ko'rsatadi.

Ushbu guruhdagi matnlar orasida harbiy hujjatlar alohida qiziqish uyg'otadi. Yu.Dubrova ushbu janrdagi diskursni harbiy xizmatchilarning huquq va majburiyatlarini aniq tartibga solinishi bilan bog'liq xususiyatlarini tahlil qilgan. Dubrovaning fikricha, harbiy diskurs yuqori darajadagi standartlashtirish, ma'lumotlarning boyligi va lo'ndaligi bilan ajralib turadi, ular orasida faktlar ustunlik qiladi, ma'lumotlarning aniqligi va kontekstlilikning ixchamlashtirilganligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, tadqiqotchi harbiy hujjatlarning yuqori darajadagi intertekstualligini va past darajadagi interdiskursivligini ta'kidlaydi [5, 24-25-b].

Hamma mutaxassislar ham axborot mazmuniga ega matnlarni harbiy nutq sifatida tasniflamaydilar, chunki ular ilmiy, texnik va axborot sohalariga ta'sir qiladi. Biroq, bizning fikrimizcha, ushbu sohalar bilan bog'liq voqeliklarni ko'rib chiqish axborot mazmunidagi matnlarda qat'iy harbiy mavzular kontekstida sodir bo'ladi, shuning uchun ular harbiy nutq bilan bevosita bog'liq.

Rasmiy va norasmiy harbiy nutq bilan bog'liq diskurs bilan bir qatorda, oraliq, "interdiskursiv maqom" deb ataladigan matnlar ajralib turadi. Ushbu ikki qism o'rtasidagi oraliq pozitsiyani badiiy adabiyot, jurnalistika va boshqalardagi harbiy mavzularga bag'ishlangan barcha narsalar egallaydi. T.S.Yusupova harbiy-badiiy, harbiy-publitsistik va harbiy-siyosiy materiallarni alohida guruhga ajratadi. Uning ta'kidicha, harbiy nutq qo'llaniladigan tizimning tabiati qat'iy bo'lishiga qaramay, ular moslashuvchan va boshqa turdagi institutsional nutqlar bilan o'zaro ta'sir qilish imkonini beradigan ajralmas tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi [14, 157-b].

Tadqiqotchilar harbiy nutq janrlarini ikki turga bo'lishni to'g'ri deb hisoblaydilar: 1) *harbiy xizmatchilar kasbiy muloqotining "yadro"sini tashkil etuvchi janr*; 2) *maqomga yo'naltirilgan muloqotdan shaxsiyatga yo'naltirilgan muloqotga o'tadigan periferik janrlar*.

Birinchi holda, harbiy nutq subyekti tartibga solinadigan maqom-rol munosabatlari doirasida harakat qiladigan ma'lum bir ijtimoiy institutning vakili sifatida harakat qiladi. E.I.Sheygal ijtimoiy-institutsional aloqa doirasida o'zaro ta'sirning ikkita yo'nalishi mavjudligini ta'kidlaydi. Ushbu o'zaro ta'sir yo'nalishlari doirasida "harbiy muassasa – jamiyat" yo'nalishi bo'yicha aloqa turli xil shaxsiy bo'lmagan "muassasalarning bayonotlari"ni (*bularga hukumat tomonidan qabul qilingan harbiy doktrina, harbiy muassasaning qonunchilik tashabbuslarini kiradi*) ifodalovchi janrlar orqali, shuningdek, harbiy muassasaning alohida vakillarining bayonotlari (*harbiy muassasa rahbarlarining davlat harbiy siyosatining asosiy masalalari bo'yicha ommaviy chiqishlari*) orqali amalga oshirilishi mumkin [13, 325-327-b].

"Jamiyat — harbiy muassasa" yo'nalishidagi muloqot ommaviy axborot vositalarida faoliyat yurituvchi janrlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Aytish joizki, jamiyat aynan ommaviy axborot vositalari (*matbuot, radio, televideniye va internet*) orqali harbiy muassasa bilan suhbat, muhokama, ayrim hollarda polemikaga kirishadi. Shunday qilib, jamiyat

davlatning harbiy tashkiloti tomonidan amalga oshirilgan faoliyatga subyektiv baho beradi. Shuningdek, jamoat birlashmalari va tashkilotlarining harbiy muassasa bilan o'zaro hamkorligi *bayonotlar, murojaatlar, chaqiruvlar, birgalikda o'tkaziladigan tadbirlar* kabi janrlarda ifodalanadi.

Tilshunoslarning asarlari tahlili asosida shuni ta'kidlash mumkinki, *“fuqaro — harbiy muassasa”* yo'nalishi bo'yicha harbiy qasamyod janri va fuqarolarning harbiy muassasalarga mustaqil ravishda yoki ommaviy axborot vositalari orqali yozma murojaatlari yordamida amalga oshirilishi mumkin.

V.I.Karasik ta'kidlaganidek, *“institutsional nutqning har bir turi maqom va shaxsiy komponentlar o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos o'lchovi bilan tavsiflanadi”*. Harbiy nutqda shaxsiy komponentning ulushi katta, deyish to'g'ri bo'lmasa-da, lekin uning janrlari nafaqat maqomga, balki shaxsiyatga yo'naltirilgan aloqa sohasida ham ishlashi mumkin [6, 216-b].

Tilshunoslar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, harbiy diskursning o'ziga xosligi uning subyektlarining harbiy ijtimoiy institutga tegishliligi bilan belgilanadi. Institutsional nutq turlarini tashkil etuvchi xarakterli mezonlar harbiy diskurs uchun ham to'liq amal qiladi. Harbiy diskurs imperativlik, ifodalangan fikrlarning aniqligi va izchilligi, matn qurishning standartlashtirilgan prototip modellari va kommunikativ taranglik bilan tavsiflanadi. Harbiy nutq janrlari sifatida qurolli kuchlar faoliyatini tartibga soluvchi matnlar va axborot mazmuniga ega matnlarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Ingliz tilidagi harbiy diskurs ikkita asosiy — *rasmiy va norasmiy* qismdan iborat. **Rasmiy harbiy nutq** tarkibiga harbiy-badiiy, harbiy-publitsistik, harbiy-siyosiy, harbiy-texnik va harbiy-ilmiy materiallarni hamda harbiy boshqaruv aktlarini (*turli ko'rinishdagi harbiy hujjatlar*) kiritiladi. Harbiy diskurs materiallari stilistik xususiyatlariga ko'ra, maxsus harbiy lug'atning boyligi, harbiy va ilmiy-texnikaviy terminologiyaning keng qo'llanilishi, harbiy nomenklaturaning ko'pligi va faqat harbiy materiallarda qo'llaniladigan maxsus qisqartmalar va belgilar bilan ajralib turadi. **Norasmiy harbiy nutq** harbiy muhitda norasmiy muloqotni o'z ichiga oladi. Norasmiy harbiy nutq ikkita asosiy komponentni — matn va kontekstni o'z ichiga oladi. Muloqot jarayonida situatsion kontekst juda muhim hisoblanib, armiyada norasmiy muloqot faqat ishtirokchilarning maqom va rol munosabatlari nisbatan teng bo'lgan holatlarda kuzatilishi mumkin. Institutsional nutqning har bir turi *maqom-rol va shaxsiy* komponentlar o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos o'lchovi bilan tavsiflanadi.

Armiya, yaxlit tuzilgan davlat instituti va ijtimoiy tizim sifatida, norasmiy harbiy nutqda namoyon bo'ladigan shaxsiy komponentning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Norasmiy harbiy nutqning lingvistik komponenti argo, jargon va slenglarning ijtimoiy-professional imkoniyatlaridan faol foydalanish bilan tavsiflanadi.

Harbiy diskursda harbiy xizmat va armiyada qo'llaniladigan atamalar asosiy rol o'ynaydi. Tadqiqotchilar armiya slenglari harbiy sohaning barcha voqeliklarini aks ettiradi, degan xulosaga kelganlar va ularni quyidagi turkumlarga bo'lishni afzal ko'rganlar [12, 76-b]:

ofitserlar tarkibi (*shavetail general — brigadir general, gold leaf — mayor, half heut — kichik leytenant, light colonel — podpolkovnik, Big Bug — qo'mondon, brass ass — ofitser, iron ass — shtab ofitser va boshqalar*);

shaxsiy tarkibga alohida harbiy bo'linmalarning nomlari, xizmat turlari kiradi (*soldier of misfortune — piyoda askarlar, red legs — artilleriya, Holy Joe — armiya ruhoniysi*

(imomi), *silent service* — ikki tomonlama flot. *Uncle Sam's circus* — AQSh dengiz floti), shuningdek, harbiyning u yoki bu bo'linmaga mansubligidan qat'iy nazar, safdorlar tarkibini ham o'z ichiga oladi (*umbrella man* — *parashyutchi*, *old sweat* – *kekxa xizmatchi* (uzoq yillik xizmat faoliyatiga ega shaxs), *skin-head* – *harbiy dengiz flotida safdor xodim*, *doolie* — AQSh Harbiy-havo kuchlari akademiyasining 1-kurs kursanti);

harbiy texnika va qurollar (*bu guruh salbiy ma'nodorlikka ega bo'lgan texnika va qurollarning nomlarini o'z ichiga oladi*) — (*uneral glide/ flying coffin* — *samolyot*, *hell buggy* — *tank*, *hell on wheels* — *piyoda jangovar avtomobil*, *Doom's Day weapon* – *yadro quroli*) shuningdek, metafora kabi usullarga asoslangan neytral ma'noli nomlar (*pineapple* – *qo'lbola granata*, *scatter gun* — *pulemyot*, *can opener* — *tankga qarshi qurollar*), onomatopeya (*pompom* – *avtomat*);

kundalik xizmat faoliyati bilan bog'liq realiyalar (*bu guruh harbiy xizmat kiyim-kechaklari nomlarni o'z ichiga oladi*) — *pips* — *ofitserlik yulduzlari*, *brass* - *metall nishon*, *tin hat* — *askar dubulg'asi*, *herring bones* – *shevronlar*);

geografik obyektlar va muassasalarning nomlari (*the Pond* — *Atlantika okeani*, *the Med* – *O'rta yer dengizi*, *the Rock* — *Gibraltar*, *Puzzle Palace / Squirrel cage / concrete carousel* – *Pentagon* (AQSh armiyasining ramzi) *spook factory* — *Markaziy razvedka boshqarmasi*);

Harbiy slenglar harbiy hayotning realiyalarini ko'rsatadi hamda harbiy hayotning o'ziga xos xususiyatlariga duch kelgan shaxslar uchun tushunarli hisoblanadi. Masalan, Pentagonning "Puzzle Palace" (*jumboq saroyi*) sifatida nomi binoning dizayn xususiyatlaridan kelib chiqqan bo'lsa, artilleriya qo'shinlarining "red legs" (*qizil oyoqlar*) deb atalishi ushbu turdagi qo'shinlar xizmat kiyimining tarixiy xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Armiya slenglari nafaqat harbiy voqelikni aks ettiradi, balki ularning qiymatini pasaytirib, ba'zan zoonimik metaforalarni qo'llash orqali kulgili ta'sirchanlikni keltirib chiqaradi:

shaxsiy tarkibning nomlanishi (*dogs of war* — *artilleriyachi*, *devil dog* – *dengizchi*, *camel corps* — *piyoda askarlar*, *land crab* — *harbiy politsiya ofitseri* (*dengiz flotida qo'llaniladi*), *bird of paradise / goose / duck* — *polkovnik*, *chick* – *do'stona qiruvchi samolyot*, *war horse* — *faxriy*, *orderly pig* — *serjantlar tarkibi ofitseri*);

harbiy texnika va qurollarning nomi (*rat-trap* — *suv osti kemasi*, *whale / tin fish* — *torpedo*, *grasshopper / whirly bird* - *vertolyot*, *field pig* — *raketa*, *sea dog* — *kemadagi qurol*, *iron horse* – *tank*);

harbiy kiyim-kechak nomlari (*monkey clothes* – *harbiy kiyim*, *tiger suit* – *kamuflyaj* (*harbiy-dala kiyimi*), *monkey suit* – *yozgi xizmat kiyimi*);

Rasmiy harbiy nutqdagi muloqotning asosiy xususiyatlari – nutqning aniqligi, bo'ysunish qoidalari va mantiqqa asoslangan bo'lsa, norasmiy harbiy nutqda masxaraomuz yoki kulgili mavzuga aylanadi.

Harbiy diskursdagi buyruq gaplar, ularning tuzilishi va xususiyatlari haqidagi masala tilshunoslikda muhim o'rin egallashi bilan ahamiyatlidir. Ingliz tilida buyruq gaplarning o'ziga xos xususiyatlari haqida tadqiqot olib borgan I.V.Kovalevaning qayd etishicha, nutqdagi maqsadiga ko'ra, buyruq gaplar harbiy diskursda **buyruq yoki majburiyat, taqiq, ogohlantirish, talab, iltimos, maslahat** va boshqalarni ifodalashi mumkin [7, 178-b]:

1. Buyruq yoki majburiyat semantik ma'nosiga ega bo'lgan buyruq gaplar (*Shout at him and make sure he knows his place. Unga qichqiring va o'z o'rnini bilintiring*). Ko'rib

chiqilayotgan mazkur nutqiy harakat, asosan, harbiy muloqotlar jarayonida samarali vositadir. Biroq, bu ma'nodagi buyruq gaplardan foydalanish boshqa turdagi muloqot jarayonlarida ham uchraydi. Masalan, o'qituvchi va talaba muloqoti bo'lib, bu holda, buyruq gaplar tinglovchini biron bir harakatni bajarishga majburlashi hisoblanadi. Masalan: *Oh, but make sure you give it to me on Monday morning! (Shuni ham yodda tutingki, dushanba kuni ertalab buni menga qaytarishingiz lozim).*

Farmoyish (talab) ma'nosidagi buyruq gaplar ba'zan "please" xushmuomalalik belgisi yordamida yumshatilib qo'llanilishi ham mumkin: *We have now landed. Please, remain seated until the aircraft has come to a complete stop — Biz endigina qo'ndik. Iltimos, samolyot to'liq to'xtagunga qadar o'tiring.*

2. Taqiq ma'nosini ifodalovchi buyruq gaplar: Taqiq ma'nosidagi buyruq gaplar asosan maishiy turmush ishtirokchilari, jumladan ota-onalar va bolalar, juftliklar [2, 76-b] o'rtasidagi muloqotda uchraydi. *No way. You definitely can't stay at Pete's – Siz hech qanaqasiga Pitni uyida qola olmaysiz.*

Ko'rinib turibdiki, so'zlovchi nutqida buyruq gaplardan foydalanish ko'pincha buyruq, talab, farmoyish bilan bog'liq. Biroq, ba'zida biz boshqa ma'nolarni ifodalash uchun ham taqiq ma'nosidagi buyruq gaplarga duch kelishimiz ham mumkin.

3. Iltimos semantik ma'nosini ifodalovchi buyruq gaplar: (*"Oh, no", Vicky said, near to tears. Stay here. Please, do. I have to say it, but I feel so shaky and shivery. "Yo'q", dedi Viki ko'zi yoshlanguday bo'lib. Shu yerda qoling. Iltimos, aytganimni qiling. Aytishga aytayapmanu, lekin o'zim juda qaltirab ketyapman).*

So'zlovchi tomonidan o'zi istagan iltimos ma'nosidagi harakatga erishishi uchun tinglovchiga "please, kindly" modal so'zidan umumiy vosita sifatida foydalanishi mumkin.

Ba'zan ingliz tilida iltimos ma'nosini kuchaytirish uchun buyruq maylining empatik (urg'u) shakli ishlatiladi, uning shakllanishida "do" yordamchi fe'li ishtirok etadi. "Do" fe'li ishtirokidagi buyruq gaplar odatda taklif va qat'iy iltimosni ifodalash usuli sifatida talqin qilinadi. Masalan: *I am sorry to have missed her. Do please pass on my best wishes — Uni qoldirib ketganimdan afsusdaman. Iltimos, unga eng iliqlik tilaklarimni yetkazing.*

4. "Let+infinitive" birikmasi ishtirokida semantik ma'no ifodalovchi buyruq gaplar. Ushbu birikmadan foydalanib, so'zlovchi qabul qiluvchi (tinglovchi)ning harakati kommunikativ aktning ikkala ishtirokchisining manfaatlariga mos keladi deb taxmin qiladi (*Let us fix the date of the meeting – Uchrashuv sanasini o'zgartiraylik!*)

5. Ogohlantirish semantik ma'nosini ifodalovchi buyruq gaplar. Shuni ta'kidlash lozimki, odatda ogohlantirish semantik ma'nosidagi buyruq gaplar tinglovchiga ta'sir qilishi uchun muayyan jargon va so'zlashuv leksikonlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi (*Look, silly; enjoy me while I'm here. You can get depressed after I leave, although I don't know why you would. Hammasi axmoqqarchilik; Men bu yerda ekanligimdan foydalaning, axir. Men ketganimdan keyin siz tushkunlikka tushishingiz mumkin, garchi sababini bilmasam ham).*

6. Maslahat semantik ma'nosini ifodalovchi buyruq gaplar. Ba'zi tilshunoslarning fikricha, inglizlar buyruq gaplar konstruksiyalarini qo'llashda o'z nutqida nihoyatda ehtiyotkor bo'lishadi, ba'zan ular buyruqni ishlatishdan qochishga ham harakat qilishadi [3, 181-b]. Ingliz tilining xususiyatlarini o'rganuvchilar shuni ta'kidlashadiki, ingliz kommunikativ xatti-harakatlari normalari ushbu grammatik shakldan foydalanishga qat'iy cheklovlar qo'yadi, bu birinchi navbatda suhbatdoshga bevosita ta'sir qiladi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, harbiy diskursda buyruq maylining ifodalanishi harbiy maqom-rol va iyerarxik munosabatlarga asoslanadi, bunda buyruq beruvchi va bo’ysunuvchining o’zaro munosabatlari qat’iy, jiddiy va muhokamalarsiz amalga oshirilishi lozim. Harbiy diskurs institutsional nutq sifatidagi turlarini shakllantirish xususiyatlari va mezonlarini qat’iy belgilab qo’yilganligi ushbu turdagi diskursning tayyor shablonlar va konstruksiyalardan keng foydalanishini ko’rsatadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Barthers Roland. Elements of semiology. – New York: Hill and Wang, 1997. – P. 69.
2. Ockenden M. Situational dialogues. Eastbourne. Longman. 1980.
3. Антонова М.К. Модальные глаголы как конституит поля императивности в английском языке: Челябинский государственный университет. Челябинск, 1974. № 5
4. Дубенец Э.М. Лингвистические изменения в современном английском языке. – Москва: Глосса-Пресс, 2003. – С. 165.
5. Дуброва Ю.Ю. Структурно-содержательная специфика многокомпонентных терминов в военном дискурсе: автореф. дис. канд. филол. наук. — М., 2015. 24 с.
6. Карасик В.И. О типах дискурса // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс : сб. науч. тр. — Волгоград, 2000. 216 с
7. Ковалева И.В. О семантических особенностях императивных высказываний в современном английском языке. Вестник МГУКИ. ISSN 1997-0803. 4 (60). 2014. С.178.
8. Маджидова Р.У. Аксиологическая оппозиция антропоцентрических пословиц узбекского и русского языков. Актуальные проблемы современной лингвистики. Сборник научных статей. – Ташкент: Vneshinvestprom, 2021. – С. 114.
9. Насруллаева Н.З. Фразеопрагматическая направленность в англоязычных словарях // Объединённый научный журнал, 2008. - № 12(218). – С. 33.
10. Стрелковский Г.М. Теория и практика военного перевода: немецкий язык. М.: Воениздат, 1979. 272 с
11. Уланов А.В. Русский военный дискурс XIX — начала XX века: структура, специфика, эволюция : дис. ... д-ра филол. наук. — Омск, 2014. 494 с.
12. Хамайдах И., Альмажали А. Военный жаргон в речи курсантов: 1 vs 5 курсы. Вестник Омский автобронетанковый инженерный институт. Омск. 2019. С. 76.
13. Шейгал Е.И. Семиотика политического дискурса. — М. : Гнозис, 2004. 325 с
14. Юсупова Т.С. Структурные особенности военного дискурса // Изв. Самар. науч. центра Рос. акад. наук. 2009. Т. 11. Вып. 4. С. 1055—1057.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).